

MENTAL ARIFMETIKANING MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI VA ZARURIYATLILIGI

Alibekova A'lo

Guliston davlat pedagogika instituti magistri

E-mail alo.alibekova.01@mail.ru

Annotatsiya

Annontatsiya: Ushbu maqolada aynan maktabgacha ta'lim tizimida yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda ularni yanada yetuk barkamol shaxs qilib tarbiyalashda yurtimizga yaqin yillardan beri kirib kelgan mental arifmetika sohasining ahamiyati va zaruriyati haqida ilmiy mulohazalar o'rin olgan.

Kalit so'zlari: Mental arifmetika, abacus, analitik fikrlash, mantiq.

Farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo'g'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi deydi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining Yangi O'zbekiston strategiyasi asarida va shuningdek so'nggi paytlarda yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasining rivojiga katta etibor qaratilib, ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda.[1]

So'nggi paytlarda mental arifmetika sohasi O'zbekistonda keng ommalashmoqda. Ayniqsa maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga mental arifmetika qo'shimcha kurs sifatida o'rgatilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar kesimida kichik guruhdan tortib to maktabga tayyorlov guruhlari bolalari barcha sohalar bo'yicha rivojlantirib boriladi. Shuningdek barcha guruhlarda boshqa mashg'ulotlari qatorida elementar matematika va mantiqiy fikrlash mashg'ulotlari haftasiga ikki marotaba o'tib boriladi va bola maktabga tayyorlov bosqichidan so'ng boshlang'ich matematik tushunchalarga: sonlarni bilish, sanash, geometrik shakllarni tanish va bir qancha miqdoriy tushunchalarni o'zlashtiradi.[2] Mental arifmetika esa o'zi sharqona hisoblash usuli bo'lib matematik amallarni abakus yordamida qisqa fursatda, tasavvurda hisoblash texnikasidir. Mental arifmetika faqatgina hisoblash texnikasi bo'libgina qolmay balki bolaning miya yarimsharlarini bir xil muvozanatda rivojlantiradigan dastur bo'lib bolaning diqqatida xotirasida hamda bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajara olish qobiliyatlarini bolada paydo bo'lishi bilan mental arifmetikaning foydali taraflarini ko'rishimiz mumkin. Mutaxassislarning fikricha bu dasturni o'rganish uchun 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni rivojlanishiga ancha yaxshi yordam beradi.[3]

Mental arifmetika bu yuqori sifatli dastur bo'lib matematik amalni miyada kalkulyatordan ham tezroq hisoblashni o'rgatadi. Mental arifmetika dasturi ta'lim-tarbiya olayotgan bolalarda quyidagi malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

1. Diqqatni jamlash
2. Mantiqiy fikrlash va mantiq
3. Tasavvur qilish
4. Analitik fikrlash
5. Ijodiy fikrlash

Mental arifmetika dasturida ta'lim olgan bolalar nafaqat matematikada balki boshqa sohalarda ham ulkan yutuqlarga erisha oladi. Aynan mental arifmetikaning Xitoyda paydo bo'lganligi va bolalar ta'limida keng joriy qilinganligi va ularning ikki yarim sharining va bir vaqtning o'zida bir nechta ish bilan shug'ullanishida mental arifmetika dasturi asosiy ahamiyat kasb etar ekan. Bundan tashqari bu dastur bo'sh o'zlashtiradigan bolalar uchun ham juda foydalidir. Ularda bu hayotga bo'lgan ishonchni, bilimni, qiziqishini ortishiga sabab bo'ladi[4.]

Barchamizga ma'lumki hozirda bizning yurtimizda ham mental arifmetika dasturiga qiziquvchilar talaygina ammo umumta'lim maktablarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha kurs sifatida pulli to'garaklar asosida o'tilmoqda qolaversa mental arifmetika trenerlari ham maxsus xususiy o'quv markazlarida tayyorlanilmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda O'zbekiston aholisi o'rtasida ota onalar bolalarini qo'shimcha o'quv kurslariga (pullik) berishda anchagina tafovut kuzatiladi. Masalan bitta guruhda 25ta tarbiyalanuvchi tarbiyalansa ularning 10 nafari qo'shimcha mental arifmetika kursiga qatnashishga imkoni bor qolganlariniki esa oilaviy sharoitiga ko'ra o'z farzandini qo'shimcha kursga bera olmaydi va shuningdek mamlakatimizdagi umumta'lim maktablarida ham xuddi shu jarayonlar kuzatilishi tabiiy holat.

Yuqoridagi mental arifmetika dasturining foydali jihatlarini hisobga olib uning bo'lajak avlodlarimizning rivoji uchun naqadar muhim dastur ekanligini anglab yetamiz.

Ammo hozirgi paytda mental arifmetika sohasi naqadar muhim ekanligini bilamiz-u ammo savol tug'iladi nega mental arifmetika faqatgina xususiy ta'lim muassasalarida dars va mashg'ulot sifatida o'tiladiyu lekin davlat ta'lim muassasalarida qo'shimcha kurslar sifatida pullik tashkil etiladi? Bundan ko'rinib turibdiki davlat ta'lim tashkilotlarida tahsil oluvchi hamma bolalar ham pullik to'garaklarga birdek qatnasha olmaydilar va natijada bir sinfdan tahsil oluvchi bolalar o'rtasida tafovutlar yuzaga kela boshlaydi. Ayniqsa hozirgi paytda mental arifmetika sohasi bo'yicha bolalar xalqaro olimpiadalarda ham qatnashib yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarmoqdalar lekin bu bolalar ham maxsus o'quv kurslarida tayyorlanib o'z salohiyatlarini oshirganlar. Mental arifmetika aynan 4-6 yoshdan boshlab bolalarga

o'rgatilishi va abakusda hisoblash texnikasi qo'llanilishi aynan shu yoshlar oralig'ida amalga oshirilishi bir necha ko'plab misollar bilan isbotlangan va aynan shu yoshda miya yodlash nuqtai nazaridan ancha moslashuvchan bo'ladi.

Bundan ko'rinib turibdiki aynan maktabgacha ta'lim tashkilotarida 4-6 yosh oralig'ida bolalar har tomonlama tarbiyalanadi va bu paytda ularning aqliy rivojini mental arifmetika yanada rivojlantiradi. Bizga ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida haftasiga ikki marta elementar matematika mashg'ulotlari o'tib boriladi va bunda individual jamoaviy boshlang'ich matematik tushunchalar bolalarga singdirilib boriladi.

Agar biz o'z ta'lim tizimizga mental arifmetika sohasini kiritib mamlakatimizdagi barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hamda umumta'lim maktablari faoliyatida tashkil eta olsak biz ta'lim-tarbiya jarayonida sezilarli darajada muvaffaqiyatga erishgan bo'lamiz va ayni zamonamizning rivojlanayotgan jabhasida mental arifmetika sohasi yosh avlodlarimizning porloq kelajagi uchun buyuk poydevor bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi strategiyasi. – Toshkent:2021
2. "Ilk qadam" davlat dasturi T:2018
3. Sultanov B., Xudoynazarov.E.M., Qochqorov. Sh.A. Mental arifmetika o'quv qo'llanma Urdu. – Toshkent: Nodirabegim, 2021..
4. D.M.Maxmudova., N.A.Mirxalilova."Mental arifmetika" kurslarini ta'lim klasteri asosida tatbiq qilish. Academic researchi in educational sciences, 2021.T._ N6 Pp.101-102.